

**COURSE :  
MONEY AND BANKS**

**LECTURE №4**

**MONETARY SYSTEM AND ITS  
ELEMENTS**

**Lecturer: PhD Kh. Rakhimova**



**FAN:  
PUL VA BANKLAR**

**MA'RUZA №4**

**PUL TIZIMI VA UNING  
ELEMENTLARI**

**Maruzachi: PhD Kh. Rakhimova**

# REJA:

---



01

ITEM 01  
Pul tizimi va uning asosiy  
elementlari.

02

ITEM 02  
Pul tizimining turlari va ularning  
evolyusiyasi. Pul islohotlari

03

ITEM 03  
O'zbekiston Respublikasida  
mustaqil pul tizimining joriy  
qilinishi.

04

ITEM 04  
Pul tizimining barqarorligi.

# 1. Pul tizimi va uning asosiy elementlari

## Pul tizimi

Mamlakatda pul muomalalarini qonuniy va mutanosib ravishda tashkil etishda qo'llaniladigan usullar majmui tushuniladi. Pul tizimi tarixan shakllangan va qonun bilan mustahkamlangan.



Source: <https://lenta.ru/articles/2021/11/10/attitude/>



# Pul tizimi har doim uni belgilaydigan elementlar to'plamini o'z ichiga oladi

**Ushbu  
elementlar  
Quyidagilar [3]:**

- pul muomalasi shakllari:
- pul muomalasining turlari;
- pul standartlari.



## 2. Pul tizimining turlari va ularning evolyusiyasi. Pul islohotlari

---

### Pul tizimi turlari [4]

- metal pul muomalasi tizimlari;
- qog'oz va kredit pullar muomalasi tizimlari;

pul qanday shaklda amal qilishiga bog'liq, ya'ni pul:

-umumiy ekvivalent-tovar sifatida,

-yoki qiymat belgisi sifatida bo'lishiga qarab pul tizimlari mavjud bo'lgan

- Birinchi tizimda metall pul bevosita muomalada bo'ladi va pulning barcha funksiyalarini bajaradi, kredit pullar esa metalga almashinishi mumkin.
- Kredit va qog'oz pullar muomalaga chiqib ketishi bilan qog'oz pullar muomalasi tizimi yuzaga kelgan.



Mamlakatda umumiy ekvivalent sifatida qabul qilingan metallga va pul muomalasi bazasiga qarab **pul tizimi**: [4]

## Metal pul Muomalasi tizimlari



- ❖ **bimetall pul tizimlari**
- ❖ **monometall pul tizimlari**

**Bimetall  
pul tizimlari  
(valyutniy  
dualizm)**

Oltin va  
kumush pullar



Source: <https://autogear.ru/article/284/745/bimetallizm---eto-bimetallizm-opisanie-osobennosti-i-interesnyie-faktyi/>

**Monometall  
pul tizimlari**

Oltin yoki kumush



Source: <https://www.m-dv.ru/catalog/id,280/prohod.html>

## Bimetallizm:

bu pul tizimida mustaqil unsur bo'lib, bunda ikki metallga: oltin va kumushga qonuniy tartibda umumiy ekvivalent roli biriktirib qo'yiladi. Bu metallardan erkin ravishda tangalar zarb qilinadi va ular muomalada erkin harakatda bo'ladi.

## Bimetallizmning uchta ko'rinishi mavjud [\[1\]](#)

- ❑ **Parallel' valyutalar tizimi.** Bunda oltin va kumush tangalar o'rtasidagi nisbat bozor baholariga mos ravishda o'rnatilgan.
- ❑ **Ikki yoqlama valyutalar tizimi.** Bunda oltin va kumush tangalar o'rtasidagi nisbat davlat tomonidan belgilab qo'yilgan
- ❑ **“Oqsoqlanuvchi” valyuta tizimi.** Bunda oltin va kumush tangalar qonuniy to'lov vositalari hisoblangan bo'lsalarda, kumush tangalarni zarb etish yepiq tarzda, oltin tangalarni zarb etish esa erkin holda amalga oshirilgan.



## Monometall pul tizmid

- umumiy ekvivalent va pul muomalasining asosi yagona metall (oltin yoki kumush) bo'lib xizmat qiladi. Amal qilayotgan tanga va boshqa qiymat belgilari qimmatbaho metallarga almashiniladi.

Qiymat belgilarining oltinga almashinishiga qarab oltin monometalizmi uch ko'rinishga ajratiladi [1]:

Oltin tanga standarti

Quyma oltin standarti

Oltin valyuta standarti



**Oltin tanga standarti** kapitalizmning erkin raqobatiga juda mos kelgan, ishlab chiqarish, kredit tizimi, jahon savdo kapitali kelib chiqishining rivojlanishiga yordam bergan.

## Oltin tanga standartini XUSUSIYATI [1]



Source:

<https://cdn.iz.ru/sites/default/files/styles/900x506/public/article-2017-05/anypics.ru-12824.jpg?itok=7xDHRsOd>



- ❖ Bu standart quyidagi asosiy xususiyatlar bilan xarakterlanadi:
- ❖ Mamlakat ichki muomalasida to'laqonli oltin tanga mavjud bo'ladi, oltin pulning barcha funksiyalarni bajaradi;
- ❖ Xususiy shaxslarga tangalarni erkin zarb qilishga ruxsat etiladi (ko'pincha mamlakat zarxonasida);
- ❖ Muomaladagi o'z qiymatiga ega bo'lmagan pullar (banknot, kredit pullar) erkin va cheksiz tarzda oltin pullarga almashish tartibi o'rnatilgan.

## Oltin quyma standartining xususiyatlari [1]

- Ma'lum miqdordagi oltin pul birligi sifatida e'lon qilinadi;
- Oltin tangalar muomalada qoladi, lekin ularga yopiq tarsda zarb qilish qoidasi amal qiladi;
- oltinning demonetizatsiyasi boshlanadi;
- Hukumat yoki markaziy bank cheklanmagan miqdorda oltinni belgilangan narxda sotib oladi va sotadi;
- Oltin bozorning erkinligi xamda oltinning mamlakatlar o'rtasida to'siqsiz aylanishini ta'minladi;
- Banknotlar qonun hujjatlarida belgilangan miqdorni ko'rsatgan holda cheklovlarsiz oltin quymalariga almashtirildi.



## Oltin deviz standartining xususiyatlari [1]

- Oltinning ma'lum miqdori pul birligi sifatida e'lon qilinadi;
- Oltin bozori erkin bo'lib, oltinning mamlakatlar o'rtasida to'siqsiz aylanishi ta'minlandi;
- Banknotlarni oltinga almashtirish ularni oltinga ayirboshlanadigan chet el valyutasiga almashtirish orqali amalga oshiriladi.



## Zamonaviy pul tizimining xususiyatlari:

[\[2\]](#)



Manba: Яндекс.Дзен

- oltinning rasmiy tarkibini bekor qilish va banknotlarni oltinga almashtirish;
- oltinga almashtirib bo'lmaydigan kredit pullariga o'tish;
- banknotlarning muomalaga faqat iqtisodiyotni bank kreditlash tarzida emas, balki davlat xarajatlarini ko'p darajada qoplash uchun chiqarish (emissiyaviy qimmatli qog'ozlar asosan davlat qimmatli qog'ozlaridir);
- pul muomalasida naqd pulsiz aylanmaning ustunligi;
- pul muomalasini davlat monopoliyasini tartibga solishni kuchayishi.



# Zamonaviy pul tizimi elementlari [1]



Source:  
[https://www.flaticon.com/ru/free-icon/capital-venture\\_2590464](https://www.flaticon.com/ru/free-icon/capital-venture_2590464)



# Pul islohoti tushunchasining mazmuni va uni o'tkazishning zarurligi

## Pul islohoti [1]

- bu mamlakat pul tizimini qayta tashkil etish bo'lib, u davlat tomonidan, mamlakat pul tizimini tartibga solish va mustahkamlash maqsadida, amalga oshiriladi .
- bu davlat tomonidan mamlakat pul muomalasini tartibga solish va mustahkamlash maqsadida amalga oshirilayotgan pul tizimini o'zgartirish.



<https://img5.cliparto.com/pic/xl/198131/6443112-25-rubles-vintage-banknote-bill-of-ussr.jpg>

<https://www.goldenpages.uz/images/pics/money-uzb/10000-0-front-min.jpg>

Sources: <https://www.pinterest.ie/johnnymcreynolds/>



## Pul islohotini o'tkazishning zarurligi [1]



Source: Daryo  
[https://darakchi.uz/storage/92/f2/4c/189453/conversions/photo\\_2020-05-18\\_16-12-36-xl-xl-xl-%281%29-xl.jpg](https://darakchi.uz/storage/92/f2/4c/189453/conversions/photo_2020-05-18_16-12-36-xl-xl-xl-%281%29-xl.jpg)

- Bir metall puldan ikkinchi metall pulga o'tishning zarurligi.
- Giperinflyasiya ta'sirida pulning keskin qadrsizlanishi va to'lov qobiliyatini yo'qotib qo'yishi.
- Urushlar davrida muomalaga nihoyatda katta miqdordagi qog'oz pullar va banknotalarni chiqarilishi.
- Davlat siyosiy mustaqillikka erishishi.
- Alohida olingan hududda yagona valyutani muomalaga kiritilishi.



## Bir metall puldan ikkinchi metall puliga o'tishi



Source:

[https://habartorg.ru/files/coins/7684/big\\_prodat\\_stari\\_nnye\\_monety\\_antichnye\\_carskie\\_inostrannye\\_pokupka\\_starinnyh\\_monet\\_ocenka\\_komissiya.jpg](https://habartorg.ru/files/coins/7684/big_prodat_stari_nnye_monety_antichnye_carskie_inostrannye_pokupka_starinnyh_monet_ocenka_komissiya.jpg)

Yevropada XVI-XVII-asrlarda mis tangalardan kumush tangalarga o'tish amalga oshirildi.

XVIII asrga kelib esa, kumush tangalardan oltin tangalarga o'tish jarayoni tugallandi.

Pullarning bunday tarsda ozgartirishning asosiy sabablari pulda mavjud metall mikdorini xajmini kamayishi yoki sifatini pasayishi.



## Pul tizimining bir shaklidan ikkinchi shakliga o'tish



Source:

[https://darakchi.uz/storage/92/f2/4c/189453/conversions/photo\\_2020-05-18\\_16-12-36-xl-xl-xl-%281%29-xl.jpg](https://darakchi.uz/storage/92/f2/4c/189453/conversions/photo_2020-05-18_16-12-36-xl-xl-xl-%281%29-xl.jpg)

Bunda oltinmoneta standartidan qog'oz va kredit pullari tizimiga o'tish tushuniladi.

Birinchi jahon urushi va 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi oltinmoneta standartini bekor bo'lishiga sabab bo'ldi va barcha yevropa davlatlari qog'oz va kredit pullari tizimiga o'tishdi.



**Milliy valyutalarni  
oltinga yoki  
kumushga  
almashtirishni  
joriy qilish [1]**



**Buyuk Britaniyada 1821 yilda, AQShda  
1879 o'tkazilgan pul islohotlari  
natijasida milliy valyutani oltinga  
almashtirish joriy etildi.**



**AQSh 1934 yildan 1974 yilgacha  
o'zining dollarini oltinga  
1 unsiya (31,1034768 r.)=35 dollar  
narxda xorijiy davlatlarga almashtirib  
bergan.**



## Pul tizimini barqarorlashtirishning asosiy usullari quyidagilardan iborat [1]

- Davlat tomonidan eskirgan eski kupyuralarni yaroqsiz deb e'lon qilish va yangi qog'oz pul belgilarini kamroq miqdorda chiqarishni bekor qilish tushuniladi.
- **Nullifikatsiya** odatda giperinflyatsiyadan keyin iqtisodiyotning barqarorlashuvi davrida milliy valyutaga ishonchni tiklash uchun amalga oshiriladi.
- **Denominatsiya** (narxlar shkalasining o'zgarishi) - bir vaqtning o'zida mamlakatdagi barcha pul majburiyatlarini qayta hisoblash bilan yangi, yirikroq pul birliklariga ma'lum nisbatda almashtirilgan holda banknotlarning nominal qiymatining o'zgarishi.



# Yangi pul tizimining paydo bo'lish asoslari

- Yangi mustaqil davlatning paydo bo'lishi;
- Yagona iqtisodiy makonga birlashgan davlatlar o'rtasida yagona valyutaning muomalaga kiritilishi munosabati bilan yangi pul tizimining paydo bo'lishi tushuniladi;



Source:

[https://upl.uz/uploads/posts/2019-08/1566385475\\_130104\\_5xesyl14041402126841\\_b.jpg](https://upl.uz/uploads/posts/2019-08/1566385475_130104_5xesyl14041402126841_b.jpg)



Source: [https://gdb.voanews.com/5550CB85-A073-4AF1-952E-5ED31A1ABD56\\_cx0\\_cy9\\_cw0\\_w1023\\_r1\\_s.jpg](https://gdb.voanews.com/5550CB85-A073-4AF1-952E-5ED31A1ABD56_cx0_cy9_cw0_w1023_r1_s.jpg)



### 3. O‘zbekiston Respublikasida mustaqil pul tizimining joriy qilinishi. Pul tizimining barqarorligi [6]

#### Mustaqil O‘zbekistonda pul islohotlari



Source:  
[http://static.xabar.uz/crop/2/9/720\\_460\\_95\\_2940998199.jpg](http://static.xabar.uz/crop/2/9/720_460_95_2940998199.jpg)

O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida ajralib chiqishi uning mustaqil pul tizimiga ega bo‘lishini taqozo qildi.

Mustaqil pul tizimini tashkil topishining

#### 1 bosqichi:

- 1993 yil 15 noyabrdan boshlab **«so‘m-kupon»** larning muomalaga chiqarilishi hisoblanadi. O‘zbekiston pul tizimini qurishning

#### 2 bosqichi:

– 1994 yil 1 iyuldan boshlab milliy valyuta **«so‘m»**ning muomalaga chiqarish bo‘lib, u O‘zbekiston tarixida katta ahamiyatga ega.

**Har bir davlatning pul tizimi ma'lum elementlardan tashkil topadi va qonun asosida yuqori davlat organlari orqali boshqarib boriladi.**



## Mustaqil O'zbekstonda pul islohotlarini amalga oshirish davrining sharoiti

[6]

- Sobiq sovetning Banklar to'g'risidagi qonuniga asosan davlat banki o'rniga Markaziy banklar tashkil qilindi;
- Mustaqil davlatlarda Markaziy (yoki milliy) banklar tashkil qilindi;
- Rossiya markaziy banki pul emissiyasi bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni bajarish huquqini o'z qo'liga oldi;
- Davlat pul belgilarini bosib chiqaruvchi muassasa Rossiyada joylashgan;
- Mustaqil davlatlar Markaziy banklarining pul muomalasini yuritish bo'yicha harakatlari cheklangan edi;



Source:  
<https://storage.kun.uz/source/uploads/20180104/images/022018/h4sr1t4h/srthshststrh-13.jpg>



## Mustaqil O'zbekstonda pul islohotlarini amalga oshirish davrining sharoiti [6]



Source:  
<https://storage.kun.uz/source/uploads/20180104/images/022018/h4sr1t4h/srthshststrh-13.jpg>

- Pul taqchilligi yuzaga keldi va u alohida olingan respublikalarda har xil darajada namoyon bo'ldi;
- Rossiya Markaziy banki muomalaga chiqargan pullarda Rossiyaning salmog'i 1991 yil dekabrda 64 % tashkil qilgan bo'lsa, 1992 yil iyuniga kelib emissiyasining 77 % Rossiyani naqd pul bilan ta'minlashga yo'naltirilgan;
- Respublikalarni (14 ta respublika) naqd pul bilan ta'minlash uchun muomalaga chiqarilgan pullarning faqat 23 % sarflangan



## Mustaqil O'zbekistonda pul islohotlarini amalga oshirish davridagi muammolar



Source:  
<https://darakchi.uz/uz/122948>



O'zbekistonda pul resurslari taqchilligi hamda naqd pulga bo'lgan talabning qondirilmaganligida namoyon bo'lishi.

Shu iqtisodiy tanglik sharoitida pul tizimini shakllantirish bo'yicha mustaqil davlatlar oldida ikki muqobil yo'l turgan edi: [\[5\]](#)

**1. Rubl' doirasida qolish va bitta pul siyosatida bo'lish.**

**2. O'z milliy valyutasini muomalaga chiqarib o'z pul tizimiga ega bo'lish va qo'shni mamlamkatlar inflyasiyasidan o'zini himoya qilish.**

## Mustaqil O'zbekistonda pul islohotlarini amalga oshirish davridagi qarorlar



Source:  
<https://darakchi.uz/uz/122948>

Pul taqchilligi davom qilayotgan va Rossiya rubli barqaror bo'lmagan sharoitda ko'pgina respublikalar kabi O'zbekiston ham mustaqillikning birinchi yillarida ikkinchi yolni tanladi, yani

**O'z milliy valyutasini muomalaga chiqarib o'z pul tizimiga ega bo'lish va qo'shni mamlakatlar inflyasiyasidan o'zini himoya qilish.**

Shu sababli milliy pul tizimini shakllantirish loyihasini tuzdi, yuqorida ta'kidlaganimizdek muomalaga kupon talonlar chiqarildi va keyinchalik (1994 y.) O'zbekiston o'zining milliy valyutasini muomalaga chiqardi.



# O'zbekiston Respublikasi pul tizimi elementlari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi: [4]



## 4. Pul tizimining barqarorligi



ID 11976228

© [lqoncept](https://www.dreamstime.com/) | Dreamstime.com

- Pulning barqarorligi deganda, pulning sotib olish qiymatining xamda uning to'lov kobilyatini o'zgarmasligi tushiniladi.
- **Pulning sotib olish** qobilyati shu pul birligiga to'g'ri keluvchi tovar va xizmatlar miqdori bilan ifodalanadi. Binobarin, pulning sotib olish qobilyatini ifodalovchi «ko'rsatkich» tovarlar va xizmatlar bahosi hisoblanadi. **[4]**



## Pul tizimining barqarorligi



ID 11976228

© [lqoncept](#) | Dreamstime.com

- Tovar va xizmatlar bahosi barqaror bo'lsa, pulning sotib olish qobiliyati ham barqaror bo'ladi. Agar tovarlar bahosi oshadigan bo'lsa, bu holda pulning sotib olish qobiliyati tushganini ko'rsatadi va aksincha, tovar va xizmatlar bahosining tushishi pulning sotib olish qobiliyatini oshganligidan dalolat beradi.
- Demak, pulning qadri tovarlar va xizmatlar bahosiga teskari proporsional – narx pasaysa, pul qadri oshadi yoki narx oshsa pulning qadri tushadi.





## Pulning barqarorligini ta'minlash yullari

- ❑ *Pulning barqarorligini ta'minlashning yana bir yo'nalishi bu oltin va valyuta zaxiralarining yaxshi shakllanganligi*
- ❑ *inflyasiyaga qarshi puxta o'ylangan siyosat yuritish. Yani antiinflasion siyosatni yuritilishi*



2019 y. MB inflyatsiyani targetlash rejimidan foydalanmoqda



2024 yil uchun inflyatsiya darajasi



5 foiz etib belgilangan.

O'zbekiston amaliyoti [\[6\]](#)



# Ma'rusada keltirilgan materiallar manbasi

1. Abdurakhmanova, M. M. (2021). Денги и банки [Money and banks]. Иқтисодиёт.
2. Abdullaeva, Sh. Z. (2013). Пул, кредит ва банклар [Money, credit and banks]. Молия.
3. Beloglazova, G. N., & Belaglazov, G. N. (2009). Денги. Кредит. Банки [Money. Credit. Banks]. Высшее образование.
4. Mardonova, A. T. (2021). Pul va banklar [Money and banks]. SamDU nashri.
5. Rakhimova, Kh. U. (2016). Над пулсиз ҳисоб-китоблар ва тўлов тизими [On cashless accounting and payment system]. Молия.

## Internet saytlar

6. [Markaziy bankning asosiy sayti. \[20.05.2023\]https://cbu.uz](https://cbu.uz)

7. [Wikipedia. Pul tizimi. \[20.05.2023\]. Retrieved from https://uz.wikipedia.org/wiki/Pul\\_tizimi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Pul_tizimi)



E'TIBORINGIZ UChUN  
RAHMAT!

